

# **GEOGRAPHICAL ASPECTS OF CONSUMER GOODS PRODUCTION IN BAGHDAD DISTRICT**

**Madaminov Zafarjon Xudoyberdiyevich**

Teacher of Fergana State University

**Vahobjonov Akbarjon Adhamjon o'g'li**

Fergana State University, Faculty of Natural Sciences  
Geography student

**Abstract:** This article is devoted to the analysis of consumer goods production and indicators in Baghdad district.

**Keywords:** Specialization, farming, geographical location, soil

## **BAG'DOD TUMANIDA XALQ ISTE'MOL MOLLARI ISHLAB CHIQRISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI**

**Madaminov Zafarjon Xudoyberdiyevich**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Vahobjonov Akbarjon Adhamjon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti  
Geografiya yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Bag'dod tumanida xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish va ko'rsatkichlarni tahlil qilishga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Ixtisoslashuv, dehqonchilik, geografik joylashuv, yerning tuprog'i

Dehqonchilik insoniyatning qadimiy faoliyat turlaridan bo'lib, ekinlarni yetishtirishga oid dastlabki ma'lumotlar qadimgi yunon olimi Gesiod (mil. avv. 776 y.) va faylasuf olim Aristotel (mil. avv. 384 y.) asarlarida keltiriladi. Rus olimi Vergiliy (mil. avv. 70-19 y.) dehqonchilik to'g'risidagi asarida tuproq xususiyatlari,

shudgorlik, ekinlarni dalada navbatlab ekishning ahamiyati haqida to'xtalib, yerga ishlov berishga oid tavsiyalar yozib qoldirgan.

Ibtidoiy odamlar yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar donini yig'ishtirib olishdan asta -sekin ularni sun'iy ravishda yetishtirishga o'ta boshlashgan. Bunda, asosan, liman dehqonchilik yuritilgan, ya'ni ekinzorlar daryo sohilida barpo qilinib, toshqin paytida ularni suv bosgan va ularning suvga bo'lgan ehtiyoji ta'minlagan. Miloddan avvalgi VI-V ming yillikda liman sug'orish Markaziy Osiyoning janub - g'arbidagi tog'oldi hududlarida tarkib topgan va rivojlangan. Miloddan avvalgi IV ming yillikda Markaziy Osiyoning janubiy tog'oldi hududlarida liman va qayir dehqonchiligidan sug'orib dehqonchilik qilishga o'tila boshlagan va shu ming yillikning ikkinchi yarmi hamda III ming yillik boshlarida ziroatchilikning ushbu usuli kengaya bordi. Markaziy Osiyoning o'rta va sharqiy qismlarida sug'oriladigan dehqonchilik nisbatan kech tarqalgan. O'zbekistonning tog'oldi vohalarida o'troq dehqonchilik tarixini o'rganish bo'yicha olib borilgan arxeologik tadqiqotlar sug'orib dehqonchilik qilish miloddan avvalgi II ming yillikda Surxondaryo vodiysi (Sopollitepa, Kuchuktepa, Dalvarzintepa), Farg'ona vodiysining sharqiy qismi (Chust), Amudaryo deltasi (Ko'kcha, Bozor) va Zarafshon vodiysi (Zamonbobo) da yuzaga kelganligini ko'rsatdi. Miloddan avvalgi I ming yillikda Markaziy Osiyoda sug'orish ishlarini rivojlantirishda yangi davr boshlandi. Xorazm, Marg'iyona va Kofarnihonda miloddan avvalgi VI-IV asrlardan milodiy IV asrgacha, Farg'ona, So'g'd va Toshkent vohalarida milodiy III-IV asrlarda sug'orish ishlari taraqqiy etdi. O'zbekistonning janubi (Zang kanali va boshqa suv manbalari) va Tojikiston (Vaxsh, Hisor vodiylari) dagi, Toshkent va Samarqand vohalaridagi qadimiy sug'orish tizimlarining qoldiqlari antik dehqonchilikning tez sur'atlarda rivojlanishi milodiy I-IV asrlarga to'g'ri kelganligini tasdiqlaydi. Aytilganidek Farg'ona vodiysi dehqonchilik uchun juda ham qulay geografik o'ringa ega tog'lardan oqib tushadigan daryolar soylar vodiylar bo'ylab hamma joyni suv bilan ta'minlashga

yetadi. Bu esa dehqonchilikning vodiya azaldan mavjudligining sabablaridan biridir. Vodiya Farg'ona viloyati dehqonchilik yerlari ko'pligi bilan ajralib turadi. Viloyatning tumanlari ham dehqonchilik ya'ni xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda o'zining ma'lum bir ixtisoslashuviga egadir. Masalan Quva tumani anor yetishtirishga ixtisoslashgan bo'lsa, Rishton tumani o'rik yetishtirishga ixtisoslashgan. Farg'ona viloyatida chorvachilikda qoramollar va parrandalar soni 34767 tani tashkil etadigan bo'lsa shundan qariyb 30 foizi 4 ta tuman Farg'ona, Oltiariq, O'zbekiston, Bag'dod tumanlariga to'g'ri keladi. (1-jadval ).

Bag'dod tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil topgan. Markazi – Bag'dod shaharchasi (15 300 kishi). Maydoni – 0,63 ming km.kv. Aholisi – 198 200 kishi. Aholi zichligi – 315 kishi (1 km.kv). Urbanizatsiya darajasi – 51,8%. Qishloq fuqarolar yig'ini - 10 ta.

Shuningdek Bag'dod tumani ham o'zining xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi bilan boshqa tumanlardan ajralib turadi.

Tuman Farg'ona viloyatining markaziy hududida joylashgan bo'lib, 333,3 km.kv. maydonni egallaydi. U janubda Rishton, sharqda Oltiariq, shimolda Buvayda, g'arbda Uchko'prik tumani bilan chegaradosh.

Hududi asosan tekislikdan iborat bo'lib, janubi-g'arbida toshloqli dasht yerlar bor. Bundan tashqari katta qismini cho'l zonasi tashkil etadi. Bunday geografik joylashuv tuman iqlimining xilma-xil bo'lishiga sabab bo'ladi.

1 - jadval

### **So'yish uchun boqiladigan mollar va parrandalar soni. (2020 yil)**

№	Hududlar	Soni	Foiz hisobda
1.	Farg'ona viloyati	34,767.0	100
2.	Farg'ona tumani	3,444.0	9.9
3.	Oltiariq tumani	2,481.0	7.1

4.	O'zbekiston tumani	2,305.0	6.6
5.	Bog'dod tumani	2,254.0	6.4
6.	Farg'ona shahri	2,233.0	6.4
7.	Quva tumani	2,132.0	6.1
8.	Buvayda tumani	2,021.0	5.8
9.	Beshariq tumani	2,005.0	5.7
10.	Uchko'prik tumani	1,934.0	5.5
11	Qo'qon shahri	1,910.0	5.4
12	Qo'shtepa tumani	1,712.0	4.9
13	Rishton tumani	1,697.0	4.8
14	Dang'ara tumani	1,636.0	4.7
15	Quvasoy shahri	1,593.0	4.5
16	Marg'ilon shahri	1,428.0	4.1
17	Furqat tumani	1,333.0	3.8
18	Toshloq tumani	1,272.0	3.6
19	Yozyavon tumani	855.0	2.4
20	So'x tumani	522.0	1.5

Manba: Jadval statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlangan

Tumanda achchiq qalampir yetishtirish Qo'qon xonligi davridan buyon mavjud bo'lib bu yerning tuprog'i geografik jihatdan olib qaraganda achchiq qalampir yetishtirish uchun qulay hisoblandi. Ya'ni Bag'dod tumani vodiyni geografik jihatdan eng past joylaridan biri bo'lib asli zax bo'lishiga qaramay, shu yerdagi mavjud zovurlarning ko'pligi tuprogning zaxini qochirib va vaqtda suv berilganligi sababli tuproq unumdorligi yuqori. Hozirgi vaqtda achchiq qalampir nafaqat o'zimizning bozorlarga, balki Rossiya davlatiga ham eksport qilinmoqda. Tumanning cho'l hududida kartoshka yetishtirish bir necha yillardan buyan

viloyatda kartoshkaga bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada taminlab kelinmoqda. Buni tumanning viloyat tumanlari orasida kartoshka yetishtirish bo'yicha 1 o'rindaligidan ko'rishimiz mumkin. (2 - jadval ).

2-jadval

**Farg'ona viloyatida kartoshka yetishtirish (2020 yil)**

№	Hududlar	Tonna	Foiz
1.	Farg'ona viloyati	298107.1	100
2.	Bog'dod tumani	25903.6	8.68
3.	Toshloq tumani	23129.5	7.7
4.	Beshariq tumani	20662.5	6.9
5.	O'zbekiston tumani	20139.8	6.7
6.	So'x tumani	19937.4	6.6
7.	Buvayda tumani	19521.1	6.5
8.	Quva tumani	19500.1	6.5
9.	Qo'shtepa tumani	18871.6	6.3
10.	Dang'ara tumani	17962.9	6.0
11	Yozyavon tumani	17506.8	5.8
12	Farg'ona tumani	17407.3	5.8
13	Oltiariq tumani	17012.2	5.7
14	Uchko'prik tumani	13715.9	4.6
15	Furqat tumani	13521.5	4.5
16	Rishton tumani	12759.3	4.2
17	Quvasoy shahri	12490.2	4.1
18	Farg'ona shahri	4062.5	1.3
19	Marg'ilon shahri	3600.9	1.2

20	Qo'qon shahri	402	0.13
----	---------------	-----	------

Tumanda paxta tozalsh zavodi, don mahsulotlari va qurilish materiallari, mebel fabrikasi va qo'shma korxonalar mavjud. Qishloq xo'jaligida asosan paxtachilik, bog'dorchilik, pillachilik, sabzavotchilik, polizchilik rivojlangan.

Tumanda xalq iste'mol mollari ishlab chiqariladi. Bu qadimdan o'zbek xalqining urf odatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan supurgidir. Supurgi bilamizki ko'p joylarda o'sadi. Lekin Bag'dodda ekiladigan supurgi o'zining pishiq ekanligi va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Geografik jihatdan olib qaraganda supurgi yetishiriladigan hudud tuprog'i supurgi yetishtirish uchun qulay bo'lganligi uchun supurgi yetishtirishga ixtisoslashgan.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda dunyoda aholi soni kundan kunga ko'payib boryapti. Global muammolar avj olmoqda shularda biri bu Afrika qit'asidagi ocharchilik muammosidir. Umuman olganda dunyoda xalq iste'mol mollariga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Biz hozirdan bunga tayyorgarlik ko'rib borishimiz xalq iste'mol mollari yetishtirishni yuksak darajaga olib chiqishimiz kelajakda kelajak avlod uchun bu muammolarni yechimini topib yechishimiz burchimizdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.“Bag'dod va Bag'dodliklar ” kitobi. Karima Ashurova 2016-yil.2.“Ta'limda islohot: o'zgarishlarni o'zimizdan boshlaylik” mavzusidagi iqtidorli o'qituvchilar konferensiyasi. Bag'dod tumani. 2020. 567- bet.

3.Z.A.Ortiqmetov. Qishloq xo'jaligi asoslari. «O'zbekiston faylasuflari milliy ja'miyati» nashriyoti. Toshkent. 2012.